

Jahon oziq-ovqat dasturi va unda ishtirok etish to'g'risida MA'LUMOT

I. Jahon oziq-ovqat dasturi haqida umumiy ma'lumot

Jahon oziq-ovqat dasturi (*World Food Program*) qashshoqlikka qarshi kurashuvchi dunyodagi eng yirik gumanitar yordam tashkiloti bo'lib, dunyoning 80 dan ortiq mamlakatida ish olib boradi. Asosiy vazifasi – turli mojarolar va tabiiy ofatlardan jabrlangan tinch aholi vakillarini zaruriy oziq-ovqat bilan ta'minlash hisoblanadi.

Ushbu vaziflarni bajarish jarayonida dastur turli mamlakatlardan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qiladi. Dastur 2022 yilda umumiy qiymati taxminan **3,3 mlrd** dollarga teng bo'lgan **4,2 mln** tonna oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olgan.

II. Oziq-ovqat mahsulotlari xaridi

Dastur ilovada ro'yxati keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini bozor narxlarida xarid qiladi. Bunda tovarlar sifat va xavfsizlik standartlariga mos kelishi talab qilinadi.

Mahsulot yetkazib berish istagida bo'lgan eksportchi korxonalar dasturning elektron platformasidan ro'yxatdan o'tishi lozim. Ro'yxatdan o'tish uchun korxonalar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- korxonalar mustaqil yuridik shaxs sifatida shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lishi;

- eksport operatsiyalarini amalga oshirishga rasmiy ruxsat yoki litsenziyaga ega bo'lishi (O'zbekistonda eksport faoliyati uchun litsenziya talab qilinmaydi);

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki savdosi sohasida kamida **3 yillik** tajribaga ega bo'lishi;

- so'nggi **3 yildagi** moliyaviy aylanmasi **5 mln** dollardan kam bo'lmasligi (tasdiqlovchi bank hujjatlari taqdim qilinadi);

- BMT va boshqa donor tashkilotlarning nohalol yetkazib beruvchilar ro'yxatiga kiritilmagan bo'lishi;

- firibgarlik, korrupsiya yoki boshqa taqiqlangan ishlar bilan ayblanmagan bo'lishi va shug'ullanmasligi.

Mahsulotlar "**Incoterms-2010**" bo'yicha "**EXW**", "**FCA**" va "**DAP**" shartlarida yetkazib beriladi.

Korxonalar yetkazib beriladigan mahsulotlarning sifati va xavfsizligiga kafolat berishi shart. Dastur tomonidan sotib olingan barcha tovarlar sifati, miqdori, xavfsizligi va qadoqlash xususiyatlari tekshiriladi. Agar tekshiruvlarda tovar shartnomada ko'rsatilgan talablarga mos emasligi aniqlansa, xarid shartnomasi bekor qilinadi.

Dastur doirasida xarid qilinadigan barcha mahsulotlar barcha soliqlar va bojxona to'lovlaridan to'liq ozod qilingan.

III. Dasturda ishtirok etish tartibi

Dasturda qatnashish uchun quyidagi tartibda ro'yxatdan o'tiladi. Ro'yxatdan o'tish bepul.

1-qadam. BMTning "Global market" platformasidan ro'yxatdan o'tish.

a) Korxonalar dasturga faoliyati haqidagi ma'lumotlarni taqdim qiladi (wpfsuppliers.crm@wpf.org);

b) BMT "Global market" portalida ro'yxatdan o'tadi va quyidagi hujjatlarni portalga yuklaydi:

- korxonaning ta'ris guvohnomasi va nizomi;
- oxirgi **3 yil** uchun tasdiqlangan moliyaviy hisobotlari;
- **3 nafar** hamkordan tavsiyanoma (*tavsiyanomada korxonalar nomi, aloqa ma'lumotlari, hamkorlik shartnomasi shartlarini muvaffaqiyatli bajarilganligini ko'rsatib o'tilishi, elektron pochta manzili ko'rsatilgan bo'lishi lozim*);

2-qadam. Hujjatlarni dastlabki baholash

Hujjatlarni dastlabki baholash so'rovnomasini to'ldirish va unda ko'rsatilgan ko'rsatilgan hujjatlar va texnik ma'lumotlarning to'liq taqdim etish;

Bunda barcha talab qilingan hujjatlar BMT “Global bozor” portalida taqdim etilgan hujjatlarga qo‘shimcha ravishda wpfsuppliers.crm@wpf.org elektron manziliga ham yuboriladi.

Agar eksportchi korxonada mahsulotni o‘zi ishlab chiqarmay, boshqa korxonalardan sotib olib, so‘ng eksport qilmoqchi bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi korxonalarining nomlari va manzillarini aniq ko‘rsatadi va tovarning texnik hujjatlarning to‘liq to‘plamini taqdim etadi.

Yuqoridagi barcha hujjatlar ingliz tilida taqdim etilishi lozim. Agar hujjatlar ingliz tilida bo‘lmasa, korxonada hujjatning asl nusxasi bilan birgalikda ingliz tiliga tarjima qilingan versiyalarni taqdim qiladi. Har bir tarjima qilingan hujjat vakolatli tarjimon tashkilotning muhri va imzosi bilan tasdiqlanishi shart.

3-qadam. Arizani ko‘rib chiqish

Arizalar dastlab korporativ va moliyaviy nuqtai nazardan tekshiriladi. Agar tekshirishdan muvaffaqiyatli o‘tsa, kompaniyalar 2-darajali BMT “Global bozor” platformasida qabul qilinadi.

Keyin texnik, sifat va xavfsizlik tekshiruvlari o‘tkaziladi. Agar ishlab chiqaruvchi korxonada texnik audit o‘tkazish zarur bo‘lsa, ariza to‘xtatib turiladi.

4-qadam. Arizaga xulosa berish

Dasturning Sotuvchilarni boshqarish qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv natijalaridan kelib chiqib, korxonaning arizasini tasdiqlash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

5-qadam. Dasturga qo‘shilish

Arizasi tasdiqlangan korxonalar dasturning elektron tender platformasida ro‘yxatdan o‘tadi va bank rekvizitlari kiritadi.